

O'lmas Urayev

*S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat
kinematografiya instituti filiali o'qituvchisi
E-mail: urayevulmas@gmail.com
ORCID: 0009-0008-1788-0987*

AKTYORLIK SAN'ATIDA XATTI-HARAKAT: ICHKI VA TASHQI HARAKATNING BIRLIGI

***Annotatsiya.** Maqolada aktyorlik san'atida xatti-harakat tushunchasi ichki va tashqi harakat birligi sifatida tahlil qilinadi. Harakat hissiy holat, nigoh, tana, organizm reaksiyasi, jimlik, xarakatsizlik va so'z orqali namoyon bo'lishi yoritiladi. Christian Bale ijodidagi "The Machinist" va "Batman Begins" filmlari aktyor organizmining obraz yaratishdagi imkoniyatlariga amaliy misol sifatida ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** aktyor, xatti-harakat, ichki harakat, tashqi harakat, hissiy holat, nigoh, tana, organizm, jimlik.*

ДЕЙСТВИЕ В АКТЕРСКОМ ИСКУССТВЕ: ЕДИНСТВО ВНУТРЕННЕГО И ВНЕШНЕГО ДЕЙСТВИЯ

***Аннотация.** В статье понятие действия в актёрском искусстве рассматривается как единство внутреннего и внешнего действия. Раскрываются способы проявления действия через эмоциональное состояние, взгляд, тело, реакции организма, молчание, неподвижность и слово. Творчество Кристиана Бейла, в частности его роли в фильмах «Машинист» (The Machinist) и «Бэтмен: Начало» (Batman Begins), рассматривается в качестве практического примера возможностей актёрского организма в создании художественного образа.*

***Ключевые слова:** актёр, действие, внутреннее действие, внешнее действие, эмоциональное состояние, взгляд, тело, организм, молчание.*

ACTION IN THE ART OF ACTING: THE UNITY OF INNER AND OUTER ACTION



Abstract. *The article analyzes the concept of action in acting as the unity of internal and external action. It examines how action is manifested through emotional state, gaze, body, physiological reactions, silence, immobility, and speech. The creative work of Christian Bale, particularly his performances in The Machinist and Batman Begins, is considered as a practical example of the possibilities of the actor's body and organism in creating a character.*

Keywords: *actor, action, internal action, external action, emotional state, gaze, body, organism, silence.*

Aktyor uchun harakat nima? Aktyorlik san'atida eng muhim va ayni paytda eng ko'p tor ma'noda talqin qilinadigan tushunchalardan biri – xatti-harakatdir. Ko'pincha aktyorning xatti-harakati deganda uning sahnada yurishi, qo'l-oyoqlarini harakatlantirishi, imo-ishora qilishi yoki tanasining jismoniy faoliyati tushuniladi. Albatta, bular xatti-harakatning tashqi ko'rinishlari hisoblanadi. Ammo aktyorlik san'atidagi harakat tushunchasi bundan ancha kengroq. Aktyor uchun harakat – bu, avvalo, hissiy holat. Harakat – ko'zdagi nazar. Harakat – tananing fizik holati. Harakat – inson ichki organizmining “harorati”. Harakat – jimlik orqali voqea mohiyatini ochib berish. Harakat – harakatsizlik orqali xarakter yaratish. Va nihoyat, harakat so'z orqali amalga oshiriladigan ichki jarayon. Shu ma'noda harakatni ichki va tashqi harakatning birligi sifatida ko'rish mumkin [1, 6-b].

Ichki harakat – personajning ichida kechayotgan fikr, hissiyot, istak, qo'rquv, ehtiros, xotira, qarama-qarshilik, qaror va maqsadlarning uzluksiz jarayonidir. Aktyor sahnada qimirlamay turgan bo'lishi mumkin, lekin uning ichida katta voqea kechayotgan bo'lsa, tomoshabin buni sezadi. Masalan, inson adolatsizlikka duch kelganda uning ichki organizmi bunga turlicha javob berishi mumkin. Bir odamning yurak urishi tezlashadi, yuzi qizaradi, nafasi o'zgaradi, mushaklari taranglashadi. Boshqa bir inson esa ayni vaziyatda tashqi tomondan mutlaqo o'zgarmaydi. Aktyor ikkala holatning organizmdagi farqini yaratishi kerak. Shunda ichki harakat tashqi shaklga tabiiy ravishda chiqadi. Tashqi harakat – ichki jarayonning aktyorning

tanasi, ovozi, yurishi, plastikasida, nafasida, imo-ishoralarida va sahnadagi jismoniy faoliyatida namoyon bo'lishidir.



Yurish, o'tirish, turish, yugurish, eshik ochish, predmetni olish, boshqa personajga yaqinlashish yoki undan uzoqlashish – bularning barchasi tashqi harakatdir. Ammo tashqi harakatning qiymati uning ichki sababga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Aktyor stol yoniga borishi mumkin. Lekin u nima uchun bordi: biror narsani yashirish uchunmi, kimdandir qochish uchunmi, qaror qabul qilish uchunmi yoki shunchaki rejissyor aytgani uchunmi? Birinchi holatda xatti-harakat mavjud, ikkinchisida esa faqat mexanik harakat mavjud [2, 1-b].

Harakat – hissiy holat. Aktyorning haqiqiy harakati uning hissiy holatidan boshlanadi. Qo'rquv, g'azab, quvonch, uyat, hasad, sog'inch yoki befarqlik inson organizmida turlicha iz qoldiradi. Aktyor "g'azablangan odam"ni faqat tashqi belgilar bilan ko'rsatmasligi kerak. U g'azabning personaj organizmida qanday paydo bo'lishini izlashi kerak. Nafas o'zgaradi, mushaklar taranglashadi, nigoh keskinlashadi, ovozning tembri o'zgaradi. Demak, hissiyot – harakatning ichki manbai. Harakat – ko'zdagi nazar. Aktyorning ko'zi uning eng kuchli ijodiy vositalaridan biridir. Nigohning bir nuqtaga qadalishi, undan qochishi, kimnidir kutishi, tanimaslikka urinishi yoki biror narsani anglab yetishi – bularning barchasi xatti-harakatdir. Ba'zan aktyorning birgina qarashi butun monologdan kuchliroq bo'lishi mumkin. Aktyor ko'zi bilan shunchaki "qarab turmasligi", balki biror

narsani izlashi, kutishi, rad etishi, eslashi, qo'rqishi yoki anglashiga erishishi kerak. Harakat – tananing fizik holati. Aktyorning tanasi – obraz yaratishdagi asosiy vositalardan biridir. Personajning yoshi, kasbi, hayot tarzi, sog'ligi, ruhiy holati va hayotiy tajribasi uning tanasida aks etishi mumkin. Shu sababli aktyor o'z tanasi bilan jiddiy ishlashi kerak. Ba'zan rol uchun ozish yoki semirish, mushak massasini o'zgartirish, yurish uslubini almashtirish, gavgani egish yoki tik tutish zarur bo'ladi. Bundan tashqari, tananing alohida qismini obrazning ifoda vositasiga aylantirish mumkin. Masalan, personajning butun xarakterini burni orqali ifodalash: burnining tarangligi – shubha, yuqoriga ko'tarilishi – takabburlik, doimiy harakatchanligi – ichki bezovtalikni anglatishi mumkin. Yelka, qo'l, barmoqlar, bosh, bel yoki oyoqlar ham personajning o'ziga xos “imzosi”ga aylanishi mumkin. Bu yerda aktyor tanani shunchaki harakatlantirmaydi. U tananing o'zidan xarakter yaratadi [1, 6-b]. Harakat – organizmning ichki “harorati”. Aktyorlikdagi eng chuqur jarayonlardan biri – personajning ichki fiziologik holatini yaratishdir. Har bir inson voqeaga o'z organizmi bilan javob beradi. Kimdir qo'rqsa oqarib ketadi, kimdir g'azablansa qizaradi, kimdir yig'lash arafasida nafasini ushlab qoladi, kimdir esa eng og'ir vaziyatda ham tashqi tomondan sovuqqon qoladi. Tasavvur qilaylik, aktyor adolatsizlikni ko'rganda qizarib ketadigan, yurak urishi tezlashadigan insonni yaratmoqda. U faqat yuzini qizartirishga urinmasligi, balki organizmning adolatsizlikka bo'lgan reaksiyasini yaratishi kerak. Boshqa personaj esa ayni voqeani ko'rib, mutlaqo betaraf qoladi. Ikki personaj bir xil voqeani ko'rmoqda, ammo ularning ichki “harorati” boshqa. Mana shu farq personajni jonlantiradi.

Harakat – jimlik orqali voqeani ochish. Jimlik – harakatning yo'qligi emas. Jimlikning ichida fikr, qaror, qo'rquv, xotira, rad etish yoki kutish bo'lishi mumkin. Aktyor ba'zan bir necha soniya jim turib, butun voqeaning mohiyatini ochib bera oladi. Masalan, personaj uzoq yillardan beri ko'rmagan insonini qarshisida ko'radi. U “Salom” deyishi mumkin. Ammo aktyor bir necha soniya jim qolib, ko'zida xotira, og'riq, tanishlik va kechirim jarayonini o'tkazsa, bu jimlik oddiy salomdan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi. Demak, jimlik ham xatti-harakatdir [3, 12-b].

Harakat – harakatsizlik orqali xarakter yaratish. Aktyorlikda doimo harakat qilish shart emas. Ba'zan qimirlamaslikning o'zi eng kuchli harakatga aylanishi mumkin. Atrofdagi barcha odamlar vahima ichida yugurayotgan paytda bir inson qimirlamay turishi mumkin.



Uning harakatsizligi jasorat, qo'rquv, befarqlik yoki shok holatini anglatishi mumkin. Buni aktyorning ichki holati belgilaydi. Shuning uchun aktyor “Men qanday harakat qilaman?” degan savol bilan birga “Men qachon harakat qilmasligim kerak?” degan savolni ham berishi kerak. Ba'zan personajning eng katta xatti-harakati – uning xarakatsizligidir. Harakat – so'z orqali. Aktyorlikda so'z ham harakatdir. Aktyor jumlaning shunchaki talaffuz qilmaydi. U so'z orqali biror narsaga erishishga urinadi: ishontiradi, qo'rqitadi, aldab ko'radi, yolvoradi, hujum qiladi, himoyalanaadi, yashiradi yoki rad etadi. Masalan, “Men seni kechirdim” jumlasini bir vaziyatda chinakam kechirim bo'lishi mumkin, boshqa vaziyatda esa yashirin qasos bo'lishi mumkin. So'z bir xil, lekin harakat boshqa. Shuning uchun aktyor “Bu gapni qanday aytaman?” degan savoldan tashqari “Men bu gap bilan nima qilyapman?” degan savolni ham berishi kerak [2, 1-b]. Christian Bale misolida aktyor organizmining transformatsiyasi. Aktyor organizmining obraz yaratishdagi imkoniyatlarini Christian Bale ijodida yaqqol ko'rish mumkin. 2004-yilda suratga olingan “The Machinist” filmida Bale uyqusizlik, paranoya va ruhiy iztirobdan aziyat chekayotgan Trevor Reznik obrazini ijro etgan. Film uchun aktyor keskin

darajada ozgan; Wikipedia ma'lumotiga ko'ra, u rolga tayyorgarlik jarayonida taxminan 62 funt vazn yo'qotgan. Bu yerda muhim jihat faqat tashqi ko'rinish emas. Tananing keskin o'zgarishi aktyorning mavjudlik holatiga ham ta'sir qiladi: yurish, gavda, nafas, jismoniy energiya, harakat amplitudasi va personajning sahnadagi "og'irligi" o'zgaradi. Bundan keyin Bale "Batman Begins" filmida Bryus Ueyn/Batman obrazini yaratdi. Wikipedia ma'lumotlariga ko'ra, Bale "The Machinist"dan keyin vaznini qayta tiklab, mushak massasini oshirgan va jang san'atlari bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan. Bu ikki rol o'rtasidagi farq aktyorlik uchun muhim xulosani beradi: bir aktyor – ikki mutlaqo boshqa organizm. "The Machinist"dagi Trevor Reznik jismonan yemirilgan, ichki jihatdan beqaror inson bo'lsa, "Batman Begins"dagi Bryus Ueyn/Batman kuch, nazorat, tayyorgarlik va jismoniy intizomga asoslangan boshqa mavjudlik holatidir.

Xulosa qilib aytganda, aktyorlik san'atida xatti-harakat – qo'l-oyoqning mexanik qimirlamasi emas. Xatti-harakat – yashash jarayonidir. Hissiy holat – harakat. Nigoh – harakat. Nafas – harakat. Tananing fizik holati – harakat. Organizmning ichki reaksiyasi – harakat. Jimlik – harakat. Harakatsizlik – harakat. So'z – harakat. Aktyor har bir rol ustida ishlaganda personajning tashqi ko'rinishini yaratish bilangina cheklanmasligi kerak. U personajning ichki va tashqi harakat mexanizmini topishi zarur. Personaj qanday yuradi? Qanday nafas oladi? Qanday qaraydi? Qo'rqanda organizmi nima qiladi? G'azablanganda qaysi mushaklari taranglashadi? Quvonganda tanasi qanday o'zgaradi? Yolg'on gapirganda nigohi qayerga ketadi? Jim qolganda uning ichida nima sodir bo'ladi? Va eng muhimi – u nima uchun bularning barchasini qiladi? Christian Bale misolida ko'rganimizdek, aktyor o'z organizmini obraz talabiga yo'naltira olsa, uning tashqi qiyofasi bilan birga jismoniy mavjudligi, energiyasi va xatti-harakat tabiati ham o'zgaradi. Shuning uchun aktyor uchun eng muhim savol "Men sahnada qanday harakat qilaman?" emas, balki "Personajim ichida nima harakat qilmoqda?" degan savoldir. Chunki ichki harakat topilsa – tashqi harakat tug'iladi. Tashqi harakat ichki sababga ega bo'lsa – u xatti-harakatga aylanadi. Xatti-harakat hayot bilan to'ldirilsa

– personaj paydo bo'ladi. Va personaj aktyorning organizmida haqiqatan yashay boshlagan paytdagina aktyorlik san'ati boshlanadi.

Shunday qilib, aktyorlik san'atida xatti-harakat ichki kechinma va tashqi ifodaning uzviy birligiga asoslanadi. Aktyorning mahorati esa ushbu ikki qatlamni sun'iylikka yo'l qo'ymasdan, yagona badiiy jarayonga birlashtira olishida namoyon bo'ladi. Ichki harakat tashqi ifodaga tabiiy turtki berganida, tashqi harakat esa ichki ruhiy jarayon bilan asoslanganida obraz ishonarli, ta'sirchan va hayotiy tus oladi. Shu jihatdan xatti-harakat aktyorlik texnikasining alohida elementi emas, balki obraz yaratishning psixologik, jismoniy va badiiy jarayonlarini birlashtiruvchi fundamental vosita sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чехов М. К актёру: О технике актёрского искусства. – Нью-Йорк: Harper and Row, 1953. – 201 с.
2. Захава Б. Мастерство актёра и режиссера. – Москва: Просвещение, 1969. – 180 с.
3. Brook P. *The Empty Space* (Пустое пространство). – London: Penguin Books, 1968. – 250 с.
4. Станиславский К. Работа актёра над собой: Дневник ученика. Ч. I и II. – Москва: Искусство, 1951. – 666 с.
5. Немирович-Данченко В. Об актёрском творчестве. – Москва: Искусство, 1984. – 165 с.
6. Гиппиус С. Гимнастика чувств: Тренинг творческой психотехники. – Москва; Ленинград: Искусство, 1967. – 295 с.
7. Wikipedia. *The Machinist* (film).
8. Wikipedia. *Batman Begins*, 2005.
https://en.wikipedia.org/wiki/Batman_Begins.
9. Wikipedia. *Christian Bale*. https://en.wikipedia.org/wiki/Christian_Bale